

OILA HAYOT MAK TABI SIFATIDA

Shamsutdinova Mahtob Xamidovna

Osiyo xalqaro universiteti S2 P-23 guruh talabasi

Yosh avlodni har tomonlama rivojlanishida, kamol topishida, buyuk shaxs sifatida shakllanishida oila muhim o`rin tutadi. U biologik, ijtimoiy, axloqiy, mafkuraviy va ruhiy munosabatlarning birlashuvi natijasida vujudga keladi, shu sababli oilalar birlashib, jamiyatni tashkil etadi.

Oila kishilarning qon-qarindoshlik, mulk va manfaat umumiyligi va talab va ehtiyojlarini birgalikda qondirishga asoslangan, maqsadi yagona bo`lgan majmua. Ya`ni mikroijsitmoi tuzulma bo`lib, jamiyatdagi o`zgarishlar oilga ta`sir ko`rsatganidek, oiladagi o`zgarishlar ham jamiyatga o`z ta`sirini ko`rsatadi.

Oila davlatning, jamiyatning asosiy tayanchi ekan, uning mustahkamligi, tinch-totuvligi, farovonligi va barqarorligidan jamiyat manfaatdordir. Oilada ma`naviy va jismoniy yetuk avlodni shakllantirish, yoshlarni oilaviy hayot qurishga tayyorlash, zamonaviy kasb hunar sirlari bilan qurollantirish lozim.

Oila tarbiyasi bu — oilada ota-on, vasiy yoki katta kishilar tomonidan bolalarni tarbiyalash. Yosh avlodning har tomonlama rivojlanishida muhim o`rin tutadi. Oila tarbiyasida doimiy tarbiyaviy ta`sirchan kuch — oilada ruhiy xotirjamlik, samimi munosabat, ota-on obro`sining yuqori bo`lishi, bolalarga talab qo`yishda, oila kattalari o`rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsini mehnatga tarbiyalashga alohida e`tibor berish, bolani sevish va izzatini joyiga qo`yish, oilada qat`iy rejim va kun tartibini o`rnatish, bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, boladagi o`zgarishlarni kuzatib borish, undagi mustaqillikka intilish va tashabbuskorlik sifatlarini qo`llab quvvatlash va hokazo. Oila qanchalik tartibli, uning a`zolari o`rtasidagi munosabat samimi bo`lsa, oila tarbiyasi ham shunchalik muvaffaqiyatli bo`ladi. Oila tarbiyasida ota-on obro`s, ularning kuzatuvchanligi, sezgirligi, hozirjavobligi muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Oila tarbiyasida tarbiya jarayoni zerikarli, quruq nasihatgo`ylikdan iborat bo`lib qolmasligi lozim. Bola hayotining ko`p qismi oilada o`tadi. Shu boisdan mavjud an'analar, urfatotlar, rasm-rusumlar va marosimlarning ijobiy ta`sirida bola asta-sekin kamol topib boradi. An`ana va marosim oila tarbiyasining qudratli quroolidir. Oila tarbiyasi ijtimoiy tarbiya bilan uzviy aloqada bo`lsagina, kutilgan natijalarga erishish mumkin.

Haqiqatdan ham oila bu insonning qo`nim topadigan, ko`ngli orom oladigan maskan hisobladidi. Boladagi tarbiya asosan oilada beriladi, undan keyin esa jamiyatda mustahkamlanib boriladi. Axir ota bobolarimiz ham bekorga aytishmagan uying tinch sen tinch deb. Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida ayolning oila turmushdagi hissasiga va shaxsiy namunasiga quyidagicha to`xtaladi: “Yaxshi rafqa – oilaning davlati va baxti. Uyning ozodaligi undan, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan. Husnli bo`lsa – ko`ngul yozig`i, xushmuomala bo`lsa – jon ozig`idir. Oqila bo`lsa, ro`zg`orda tartib-intizom bo`ladi, asbob-anjomlar pokiza va saranjom turadi”.

Darhaqiqat inson hayotida oila tarbiyasi juda muhim rol o`ynaydi.U dunyoni oilasi nazdida ko`ra boshlaydi. Bolaga tarbiya berishda ota va ona birdek mas`ul hisoblanadi. Oiladagi samimiylilik xotirjamlik o`zaro mehr oqibat bo`lsa albatta bunday farzandlar kelajakda yetuk insonlar bo`lib yetishishadi. Uyi ozoda farzandlari tinch bo`lgan har bir oila boshlig`i xotirjam yurishi ishlashi mumkin bo`ladi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta`kidlaganlaridek: «Eng katta baxt, men buni ming marta qaytarishdan charchamayman, oilamiz tinch bo`lsin! Oila kichik

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

Vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, Vatan tinch bo'ladi. O'sha baxtli kunlarni, Vatanimizning, yoshlarimizning kamolini hozir niyat qilayotganimiz kabi ko'rish hammamizga nasib etsin!» Albatta, Shavkat Mirziyoyev ham oila bu kichik Vatandir deganlar. Haqiqatdan ham hamma narsa bu bizning oilamizdan boshlanadi. Shuning uchun ham hozirgi kunda ayol qizlarimizni o'qishlariga juda katta imkoniyat yaratib berilyapti. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek yosh avlodni onalar ulg'aytiradi o'zi o'qigan va uqqan ona kelajakda yetuk kadrlarni tarbiyalashi mumkin bo'ladi.

Pedagogikada oila tarbiyasiga alohida e'tibor beriladi. Oila millat uchish maydoni deb e'tirof etiladi. Bu haqda sharq mutafakkirlarining fikrlari alohida e'tiborga molikdir. Masalan, taniqli olim, pedagog A. Avloniy o'zining mashhur "Turkiy Guliston va ahloq" asarida shunday deydi: "Tarbiyani kimlar qilur? qaerda qilinur? degan savol keladur. Bu savolga birinchi uy tarbiyasi, bu ona vazifasidir ikkinchi maktab tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidur".

Zeroki farzand tarbiyasi uchun ota ona birdek mas'ul bo'lsalar ham, bola bilan ko'roq vaqt o'tkazadigan onalar hisoblanadi. Farzandlar birinchi navbatda onasidan otasidan o'rnak olib voyaga yetadilar. Ular komil inson qiyofasini ota- onasi va muallimida ko'radilar.

Jumladan, Abu Nasr Forobiy mavjudotni bilishda ilm-fanning rolini hal etuvchi omil deb biladi, uningcha inson tanasi, miyasi, sezgi organlari tug'ilishda mavjud, lekin aqliy bilimi, ma'naviyligi, ruhi, intellektual va axloqiy xislatlari, xarakteri, dini, urf-odatlari, ma'lumoti tashqi muhit, boshqa insonlar va shu kabilar bilan muloqotda vujudga keladi, inson o'z faoliyati yordamida ularni egallaydi, ularga erishadi. Uning aqli, fikri, ruhiy yuksalishining eng yetuk mahsuli bo'ladi, deb ta'kidlaydi. Abu Rayhon Beruniy ta'lim va tarbiyaning maqsadi, vazifalari va mavqeyi, inson, yosh avlodning rivojlanishi haqidagi fikrlari chin ma'noda insonparvarlik va insonshunoslik zamirida yaratilgan. Bilim va tarbiyaning tabiatga uyg'unlik tamoyillarini mutafakkirning barcha asarlarida kuzatish mumkin. U insonni tabiatning bir qismi deb ta'kidlaydi.

Sharq mutafakkirlaridan biri Abu Ali ibn Sino:" Bola tug'ilgach, ota avvalo unga yaxshi nom qo'yishi, so'ngra esa uni yaxshilab tarbiya qilishi kerak", deb ta'kidlaydi. Sharqning buyuk allomalaridan yana biri Muslihiddin Sa'diy SHeroziy Bolani tarbiyalash vazifasini ularning ota onalariga, ayniqsa otaga yuklaydi, ya'ni oilaviy tarbiyaga katta e'tibor beradi. Shuning uchun u ko'proq ota-onalarga, ko'proq otaga murojaat qiladi. Sa'diy ota onalarga har bir farzandning xulq-atvorini hisobga olgan holda bolalarni qobiliyatli qilib o'stirishni, ahloqiy tarbiyani yoshlikdan boshlashni tavsiya etadi. Sa'diy Sheroziyning uqtirishicha , xulq-atvor shakllanib bo'lgach, tarbiya uncha kor qilmaydi, - deydi. Ota-onalar ayniqsa ota bolasi tarbiyasiga e'tibor bermasa, bola yomon odamlarga qo'shilib qo'lishib qolishi mumkinligini aytadi. SHeroziy oilada ayollarning mavqeい haqida to'xtalib, ayollar hayotda erlari uchun do'stdirlar. Ayollar nafaqat tashqi ko'rinishidan, balki ma'naviy jihatdan ham go'zal, rostgo'y, itoatkor, o'z eriga sodiq, shirin so'z bo'lishlari va oilaning baxti, mustahkamligi uchun kurashmog'i lozim, deydi. Onalarni insonga hayot baxsh etgan ulug' zot sifatida ulug'laydi. Sa'diying fikricha, oila bolaning baxtli kelajagi uchun zamin yaratadi. U oilada asosiy tayanch deb otani biladi. Sa'diy ota onalarga, ayniqsa otalarga o'z bolalarini tarbiyalashni, o'qitishni, hunar o'rgatishni, jismonan chiniqtirishni, ularga odamlar bilan muloqotda bo'lish odobini o'rgatishni, sog'lom bo'lish uchun muayyan miqdorda ovqatlanishga odatlantirishni tavsiya etadi.

Yusuf Xos Hojib ("Qutadg'u bilig" asari)ning uqtirishicha, har bir kishi jamiyatga munosib bo'lib kamol topmog'i kerak. Buning uchun u tug'ilgan kunidan boshlab zarur tarbiyani olmog'i lozim. Shoir turkiy xalqlarning an'anaviy tarbiyasiga, oila muhitidagi tarbiyaga alohida e'tibor qaratadi. Uning ta'kidlashicha, bola tug'ilgandan boshlab oila muhitida yashaydi. Shu oilaga xos bo'lgan an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bolaning ma'naviy dunyosiga singadi. Oila

jamiyatning bir bo`lagidir. Demak, bola oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his qiladi. Farzandlar tarbiyasi nihoyatda erta boshlanmog`i shart. Shundagina ularning noo`rin hatti-harakatlarga berilishining oldi olinadi. Ota farzandlar tarbiyasiga e`tiborsizlik bilan qarasa, ularning yurish – turishlari ahloq-odobini kuzatib bormasa, oqibati fojiali bo`lishi mumkin. Yusuf Xos Hojib ota-onalarni bola tarbiyasiga e`tibor berishga da`vat etar ekan, jamiyat farzadlar xulq-atvoriga qarab ota-onalarga baho berishini aytadi, ularni ogohlantiradi.

Sharq mutaffakirlarining barchasini g`oyaviy jihatdan birlashtirgan asos shu bo`lganki, ular shaxs tarbiyasi va kamolotida oilaning, oilaviy tarbiyaning rolini yuqori qo`yishgan, ayniqsa, shaxsning aqliy va axloqiy kamolotida oilaning o`rni, ota-onsa va yaqin kishilarning yo`naltiruvchi va tarbiyalovchi vazifalariga alohida e`tibor bergenlar. Ular faqat oiladagina rivojlanishi mumkin bo`lgan sifatlar — halollik, poklik, mardliq, mehribonlik, haqgo`ylik kabi qator fazilatlarni barcha sifatlardan yuqori qo`yishlari bilan birga insoniy munosabatlarda namoyon bo`ladigan yuksak fazilatlar, avvalo, ota-onadan bolaga o`tishi va ularning jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta`siri kabi qimmatli fikrlar va bu boradagi amaliy ko`rsatmalarni o`z falsafiy-axloqiy, sotsiologik qarashlarida ifodalab bergenlar.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Olimov, T. (2020). Bo`lajak oliy ma'lumotli mutaxasislarda fuqarolik madaniyatini shakllantirishning ayrim yo`nalishlari. *FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI, 1(1)*, 20-27.
2. Olimov, T. The role of national spirituality and values in the development of civil culture in future specialists with higher education.
3. Рамазонова, С. С., & Корёгдиев, З. О. (2023). XALQ PEDAGOGIKASI TUSHUNCHASINING TAHLILI VA UNING MANBAALAR: Ramazonova Salomat Saidovna Osiyo xalqaro universiteti magistranti, Qoryog`diev Zufar Oxunjonovich Ilmiy rahbar. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (8), 198-202.
4. Saidovna, R. S. (2023). YOSHLARNI MILLIY QADRIYATLAR VA URF-ODATLAR ASOSIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA OILA-TA'LIM MUASSASASI VA MAHALLA HAMKORLIGINING AHAMIYATI. *Science Promotion, 4(1)*, 279-287.
5. Saidovna, R. S. (2023). XALQ PEDAGOGIKASINING SHAKLLANISHIDA O'RTA OSIYO BUYUK MUTAFAKKIRLARI PEDAGOGIK G'OYALARINING O'RNI. *Science Promotion, 4(1)*, 288-294
6. Saidovna, R. S. (2025). O'SMIRLIK DAVRIDA KIMLIKNI SHAKLLANTIRISH. The latest news and research in education, 2(1), 114-119.
7. Saidovna, R. S. (2025). YOSHLIK VA RUHIY SOG'LIQ. The latest news and research in education, 2(1), 77-82.
8. Saidovna, R. S. (2025). O'SMIRLIKDAGI STRESS VA UNING PSIXOLOGIK TA'SIRI. The latest news and research in education, 2(1), 83-88.
9. Saidovna, R. S. (2025). IJTIMOIY O'ZARO TA'SIR VA TENGDOSHLAR ROLI. The latest news and research in education, 2(1), 89-94.
10. Saidovna, R. S. (2025). YOSH DAVRLARDA XULQ-ATVOR VA O'ZGARISHLAR. The latest news and research in education, 2(1), 70-76.
11. Saidovna, R. S. (2025). BOLALIK VA O'SMIRLIKDA O'ZLIKNI ANGLASH. The latest news and research in education, 2(1), 101-106.

Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

12. Saidovna, R. S. (2025). EMOTSIONAL RIVOJLANISH VA O'ZINI ANGLASH. The latest news and research in education, 2(1), 107-113
13. Saidovna, R. S. (2025). TA'LIM JARAYONIDA YOSHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. The latest news and research in education, 2(1), 95-100.
14. Saidovna R. S. YUQORI SINF O 'QUVCHILARIDA "TARBIYA" DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH TEXNOLOGIYALARI PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA //PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI. – 2025. – Т. 2. – №. 2. – С. 363-366.
15. Saidovna, R. S. (2025). XALQ O 'YINLARINING BOLANING RUHIY VA JISMONIY RIVOJLANISHIDAGI O 'RNI VA AHAMIYATI. Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology, 2(1), 66-72.
16. Saidovna, R. S. (2025). OILAVIY TARBIYADAGI XALQ PEDAGOGIKASIGA OID USULLAR VA ULARNING BUGUNGI KUN UCHUN DOLZARBLIGI. Problems and solutions at the stage of innovative development of science, education and technology, 2(1), 73-79.
17. Ramazonova Salomat Saidovna " YUQORI SINF O'QUVCHILARIDA TARBIYA DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI" OSIYO XALQARO UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2025-yil, 1-son, 69-73.